



e

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**MA'NAVIYAT VA DIN  
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lism
Ta'lim sohasi:	110 000 – Ta'lism
Ta'lim yo'nalishi:	70112101 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)

**Chirchiq – 2024**

Fan/modul kodi <b>MVD1405</b>		O'quv yili <b>2024-2025</b>	Semestr <b>4</b>	ECTS - Kreditlar <b>5</b>	
Fan/modul turi <b>Majburiy</b>		Ta'lim tili <b>O'zbek</b>		Haftadagi dars soatlari <b>4</b>	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ma'naviyat va din		60	90	150
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b>  <b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistrant talabalarga shaxs ma'naviyatining shakllanishida dinding o'rni va ahamiyati, ma'naviyat va din nisbatini anglashga oid nazari bilimlarni berish.</p> <p><b>Fanning asosiy vazifalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'naviyat va din nisbati, ular o'rtasidagi umum-aloqadorlikning mazmun – mohiyatini ilmiy-falsafiy jihatdan ochib berish;</li> <li>- umuminsoniy ma'naviyatni shakllantirishda dinding o'mi va roli, dinding reguliyativ, integrativ, kompensatorlik, kommunikativ, tarbiyaviy funksiyalarining ma'naviy jihatlarini ilmiy asoslash;</li> <li>- diniy dunyoqarashning ma'naviy qirralari, diniy arboblar ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan tablalar, diniy tashkilotlar faoliyatining ma'naviy funksiyalarini hamda O'zbekistonda davlat va din munosabatlarining, vijdon erkinligining ma'naviy negizlарini falsafiy tahlil qilish;</li> <li>- talabalar ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, ularda mas'uliyat va ogohlilik tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.</li> </ul> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu: Ma'naviyat va din nisbati</b></p> <p>Ma'naviyat va din nisbati masalasi. Ma'naviyatning diniy ildizlari. Eng qadimgi diniy tasavvurlardan boshlab milliy va jahon dinlari paydo bo'lgan davrlarda yuz bergen jarayonlar, shaxs va jamiyat taraqqiyotida din bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalar, ma'naviy omillar, urf-odat, an'ana va qadriyatlar – tadqiqot obekti. Diniy e'tiqod, ma'naviyat va sharqona axloq normalarining shakllanishidagi o'zaro bog'liqlik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk vatandoshlarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulkholiq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy kabi allomalarining benazir merosini ilmiy asosda chuqr tadqiq etish, ularning ilmiy-ma'naviy jasorati, ulug' insoniy fazilatlarini keng targ'ib qilish masalalari.</p> <p><b>2-mavzu: Umuminsoniy ma'naviyatni shakllantirishda dinding o'rni va roli</b></p> <p>Milliy ma'naviyatimizning umuminsoniy mohiyati. Xalqimiz ma'naviyatining milliyligi, uning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi. Illohiy kitoblarda eng asosiy umumbashariy qadriyat – har bir insonning yashash</p>				

huquqining himoya qilinishi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident Qarorida shaxs ma'naviyatini shakllantirishda diniy manbalarning o'rni. Islom dini odamlarni, barcha millat va xalqlarni hamisha nurli hayotga, ezzulik, o'zaro do'stlik va insoniylikka da'vat etishini, uning asl, gumanistik mazmunini teran tahlil etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish borasidagi vazifalar.

### **3-mavzu: Ma'naviyat va din munosabatini ilmiy tadqiq etish metodologiyasi**

Ma'naviyat va din munosabatini ilmiy tadqiq etishning o'ziga xos jihatlari. Dinda inson ruhiyati, axloqiy xususiyatlari, imon-e'tiqodi, mehr, burch, ilmga intilishga oid muammolarining hal etilishi.

Xalqimiz ma'naviyatining shakllanishi jarayonida diniy qadriyatlar va normalarning ahamiyati. Diniy va dunyoviy manbalarda ma'naviyat va din munosabati tahlili.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida ma'naviyat va din munosabatini ilmiy tadqiq etish masalalari. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qaroridagi ustuvor vazifalar.

### **4-mavzu: Dinning ijtimoiy funksiyalari va ularning ma'naviy jihatlari**

Ijtimoiy hayot va din. Dinning reguliyativ funksiyasi va uning ma'naviy jihatlari. Dinning integrativ funksiyasi. Fuqarolarda ma'naviy dunyoqarash va bag'rikengilik fazilatini shakllantirishda dinning integrativ funksiyasidan foydalanish. Dinning konpensatorlik vazifasiga ma'naviy yondashuv. Shaxs va jamiyat o'rtaсидagi o'zaro aloqalarni ta'minlashda dinning o'rni va ahamiyati.

Din ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishi, uning tarbiyaviy vazifani o'tashi. Jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamashshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi olim va mutasakkirlar merosining tarixiy va zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati masalalari.

### **5-mavzu: Diniy dunyoqarash va ma'naviyat**

Vijdon va e'tiqod erkinligi. E'tiqod – inson dunyoqarashining asosiy komponenti sifatida. Diniy dunyoqarash, uning umuminsoniy tabiat. Diniy dunyoqarash – inson ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri. Diniy dunyoqarashning mohiyatini belgilovchi asosiy g'oyalar.

Hayotning ma'nosi – diniy dunyoqarashning asosiy ideali ekanligi. Chinakam insoniy munosabatlar, umumiyl farovonlik va adolatni qaror toptirish uchun kurashning diniy dunyoqarash bilan bog'liqligi. O'zbekistonda vijdon erkinligining huquqiy asoslari.

#### **6-mavzu: Diniy psixologiya, ilohiyot hamda marosimchilikning ma'naviyatga ta'siri**

Diniy psixologiya tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Inson ruhidagi Borliq haqiqati – diniy psixologiyaning bosh mavzusi. Ilohiyat va marosimchilik. Diniy psixologiya, ilohiyot, marosimchilik va ma'naviyat.

Insonning Borliq haqiqatini anglab yetishga bo'lgan urinislari, uning ma'naviyatga ta'siri. Milliy ma'naviyatning boyishida kalom ilmi, fiqh, tasavvuf tariqatlari va irfon, mumtoz adabiyot kabi o'ziga xos yo'nalishlarning o'rni va ahamiyati.

#### **7-mavzu: Diniy tashkilotlar faoliyatining ma'naviy funksiyalari**

Diniy tashkilotlar, ularning huquqiy asoslari. Diniy tashkilotlarning vazifalari. Diniy tashkilotlar faoliyatining boshqarilishi. Diniy tashkilotlar faoliyatiga qo'yildigan ma'naviy talablar.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlar. Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, xalqlar va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlashda diniy tashkilotlarning o'rni. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi Qonunda diniy tashkilotlar faoliyatining tamoyillari.

#### **8-mavzu: Diniy arboblar ma'naviy qiyofasiga qo'yildigan talablar**

Diniy arboblar, ularning burch va mas'uliyati. Bugungi kunda diniy arboblar zimmasidagi eng muhim vazifalar. Diniy arboblarning ma'naviy qiyofasi. Jamiyat tomonidan ularning ma'naviy qiyofasiga qo'yildigan talablar.

Fuqarolar ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda, ularda mas'uliyat va ogohlilik tuyg'ularini shakllantirishda diniy arboblarning o'rni. Shavkat Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumandagi nutqida diniy arboblar oldidagi asosiy vazifalar e'tibor masalasi.

#### **9-mavzu: O'zbekistonda davlat va din munosabatlaringin, vijdon erkinligining ma'naviy negizlari**

Huquqiy demokratik davatlarda din va davlat hamda dinlararo munosabatlarning tartibga solinishi. O'zbekistonda davlat va din munosabatlaringin huquqiy asoslari. Vijdon erkinligi tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Davlat va din munosabatlari hamda vijdon erkinligining ma'naviy zaminlari.

Sho'rolar tuzumi davrida vijdon erkinligi borasida yo'l qo'yilgan xatolar. "Madaniy inqilob", uning salbiy oqibatları.

Mustaqil O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitusion kafolatlanishi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, uning ma'naviy ahamiyati.

#### **10-mavzu: "Dunyoviylik – daxriylik emas" prinsipining ijtimoiy- ma'naviy ahamiyati**

Diniy va dunyoviy tamoyillar uyg'unligi – jamiyatni demokratik asosda qayta qurish, undagi barcha munosabatlarni chinakam insonparvarlik asoslarida

shakllantirishning zarur shartlaridan biri. Diniy ma'nodagi imon bilan dunyoviy (ilmiy) ma'nodagi e'tiqod o'rtasidagi tafovut va uyg'unlik. Iymonli odamlarga xos bo'lgan fazilatlarning dunyoviy davlat prinsiplariga ham xosligi.

Jamiyat hayotida sekulyarizatsiya jarayonlari. "Dunyoviylik – daxriylik emas" prinsipining mazmun va mohiyati, uning ijtimoiy- ma'naviy ahamiyati.

### **11-mavzu: Dinlararo bag'rikenglik tamoyilining ma'naviy asoslari**

Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) va jamiyat a'zolarining huquqi, demokratiya, adolatparvarlik, insonparvarlik kabi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-axloqiy tushunchalar uyg'unligi. Dunyo hodisalariga munosabat, o'tmish va ma'naviy qadriyatlarni baholashda hamda turli dinlararo muhim masalalarning yechimini topishda tolerantlikning o'mi. Butunjahon Bag'rikenglik Tamoyillari Deklорatsiyasi, uning ahamiyati.

O'zbekistonda bag'rikenglik tamoyillarining huquqiy va ma'naviy asoslari. Mamlakat ichida va tashqarisida tinchlik, hamkorlikni ta'minlashda diniy bag'rikenglik g'oyasining ahamiyati. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorda diniy bag'rikenglik masalalari.

### **12-mavzu: Hozirgi davrdagi diniy-ekstremistik oqimlarning ijtimoiy-siyosiy ildizlari va buzg'unchilik maqsadlari**

Diniy fundamentalizm, ekstremizm va diniy terrorlarning asl mohiyati, ularning ijtimoiy-siyosiy ildizlari. Dinning sofligini saqlash uchun kurash yo'llari. Diniy modernizm, ya'ni dinga yangiliklar kiritish va o'z manfaati yo'lida manbalarni sharplashga yo'l qo'ymaslik zaruriyati. Diniy mutaassiblikni singdirish orqali "sof islom" g'oyasi tarafdarlarini ko'paytirishga urinishlar. Turli diniy tashkilotlar va guruhlarning siyosiy hokimiyatni egallash, xalifalik davlatini tuzish maqsadida olib borayotgan qabih hatti-harakatlari. Diniy fundamentalistik g'oyalarni amalga oshirishda qurol-yarog'lardan foydalanishga urinish va uning salbiy oqibatlari.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida Qarorda yoshlar ma'naviy olamini turli buzg'unchi tahdidlardan himoyalash masalalari.

### **13-mavzu: Globallashuv va axborotlashuv sharoitida din niqobidagi tahdidlarni bartaraf etishda islom ma'naviyatining o'rni**

Globallashuv va axborotlashuv sharoitida din niqobida yuzaga kelayotgan tahdidlar. Axborot texnologiyalari asrida islomga bo'lgan qiziqishning ortishi.

Shariat va ma'naviyat. Shariatning manbalari. Islom arkonlari va ularning insonparvarlik g'oyalari. Islom ruknlari va ularning shaxs ma'naviyatida tutgan o'rni. Islomning asosis bayramlari. Islom qadriyatlari, ularning umuminsoniy harakteri. Islom urf-odatlaridagi ma'naviy-axloqiy asoslar, ularning avloddan avlodga o'tish xususiyati.

### **14-mavzu: Kibermakonda ma'naviyat va din omili**

Kibermakon va uning o'ziga xos xususiyati. Kibermakonda ma'naviyatdagi

transformatsiyalar. Yoshlar ma'naviyatidagi o'zgarishlar. Kibermakonda din niqobidagi kiberhujumlar tahdidiga qarshi kurashish. Fan-texnika yutuqlaridan foydalanish masalasiga diniy munosabat. Diniy qarashlaning inson ruhiyatiga ta'siri. Raqamlashgan olamda ma'naviy hayot.

### **15-mavzu: O'zbekistonda ma'naviyat va din sohasiga oid islohotlar**

Zamonaviy dunyoda dinga bo'lgan ehtiyoj. Bugungi kunda diniy va dinlararo munosabatlar. Diniy erkinlik. Konfessiyalararo munosabatlar. O'zbekiston Respublikasida diniy erkinlikning huquqiy asoslari. "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik rezolyutsiyasi". Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzvilyigini ta'minlash masalasi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida yurtimizda din va e'tiqod erkinligi. Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash.

### **III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ma'naviyat va din nisbati
2. Umuminsoniy ma'naviyatni shakllantirishda dinning o'rni va roli
3. Ma'naviyat va din munosabatini ilmiy tadqiq etish metodologiyasi
4. Dinning ijtimoiy funksiyalari va ylarining ma'naviy jihatlari
5. Diniy dunyoqarash va ma'naviyat.
6. Diniy psixologiya, ilohiyot hamda marosimchilikning ma'naviyatga ta'siri
7. Diniy tashkilotlar faoliyatining ma'naviy funksiyalari
8. Diniy arboblar ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar
9. O'zbekistonda davlat va din munosabatlarining, vijdon erkinligining ma'naviy negizlari
10. "Dunyoviylik – daxriylik emas" prinsipining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati
11. Dinlararo bag'rikenglik tamoyilining ma'naviy asoslari
12. Hozirgi davrdagi diniy-ekstremistik oqimlarning ijtimoiy-siyosiy ildizlari va buzg'unchilik maqsadlari
13. Globallashuv va axborotlashuv sharoitida din niqobidagi tahidlarni bartaraf etishda islom ma'naviyatining o'rni
14. Kibermakonda ma'naviyat va din omili
15. O'zbekistonda ma'naviyat va din sohasiga oid islohotlar

### **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarini tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

### **Mustaqil ta'lif uchun tavsya etiladigan mavzular:**

1. Ma'naviyat tushunchasi.
2. Din va diniy qarashlar.
3. Din-ma'naviyatning tarkibiy qismi.
4. Prezident asarlarida ma'naviyat tushunchasining talqini.
5. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ma'naviyat va din masalalarining yoritilishi.
6. Huquqiy demokratik davlatlarda din va davlat hamda dinlararo munosabatlarning tartibga solinishi.
7. O'zbekistonda davlat va din munosabatlarining huquqiy asoslari.
8. Vijdon erkinligi tushunchasi, uning mazmun va mohiyati.
9. Dinda inson ruhiyati, axloqiy xususiyatlari, imon-e'tiqodi, mehr, burch, ilmga intilishga oid muammolarning hal etilishi.
10. Davlat va din munosabatlari hamda vijdon erkinligining ma'naviy zaminlari.
11. Butunjahon Bag'rikenglik Tamoyillari Dekloratsiyasi, uning ahamiyati.
12. O'zbekistonda bag'rikenglik tamoyillarining huquqiy va ma'naviy asoslari.
13. Mamlakat ichida va tashqarisida tinchlik, hamkorlikni ta'minlashda diniy bag'rikenglik g'oyasining ahamiyati
14. "O'zbekiston mustaqillik ostonasida" asarida ma'naviyat va din masalalarining yoritilishi.
15. O'zbekiston rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari.
16. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash vositalari.
17. Diniy fundamentalizm, ekstremizm va diniy terrorlarning asl mohiyati, ularning ijtimoiy-siyosiy ildizlari.
18. Dinning sofligini saqlash uchun kurash yo'llari.
19. Diniy modernizm, ya'ni dinka yangiliklar kiritish va o'z manfaati yo'lida manbalarni sharxlashga yo'l qo'ymaslik zaruriyat
20. Bugungi kunda turli din niqobidagi tahdidlarni bartaraf etishda islam ma'rifati va ma'naviyatining o'mi.
21. Dinlar kelib chiqishining ijtimoiy-tarixiy asoslari.
22. Dinning funksiyalari va jamiyatdagi roli.
23. Qadimgi milliy dinlar va uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli.
24. Tasavvuf namoyondalarining diniy, ijtimoiy va falsafiy qarashlari.
25. Diniy qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyati.
26. Ummuminsoniy ma'naviyatni shakllantirishda dinning o'mi va roli.
27. "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik rezolyutsiyasi" mazmuni va ahamiyati.
28. Dinning funksiyalari va jamiyatdagi roli.
29. Qadimgi milliy dinlar va uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli.
30. Milliy dinlar va ular marosimlari.
31. Zardushtiylik: ta'lomit va jamiyat hayotidagi o'rni.
32. Jaholat davri. Islom dinining paydo bo'lishi.
33. Islomdagi yo'naliishlar.
34. Sunniyligidagi mazhablar.

	<p>35.Islom g'oyalarining ijtimoiy-funksional mohiyati.</p> <p>36.Tasavvuf namoyondalarining diniy, ijtimoiy va falsafiy qarashlari.</p> <p>37.Diniy qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyati.</p> <p>38.Umuminsoniy ma'naviyatni shakllantirishda dinning o'mni va roli.</p> <p>39.Bugungi kunda diniy va dinlararo munosabatlar.</p> <p>40.“Ma'rifat va diniy bag'rikenglik rezolyutsiyasi” mazmuni va ahamiyati.</p> <p>41.Jamiyat, inson va ma'naviyat: moddiy va ma'naviy hayot mushtarakligi.</p> <p>42.Taraqqiyotning o'zbek modelida ma'naviyatning o'mni.</p> <p>43.Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati.</p> <p>44.Mustaqil taraqqiyotning ma'naviy asoslari.</p> <p>45.Ma'naviyatning vujudga kelish va dastlabki rivojlanish bosqichlari.</p> <p>46.Ma'naviy hayotda diniy va siyosiy mafkura ta'sirining kuchayishi.</p> <p>47.Ma'naviyatning ijtimoiy turmushning barcha sohalariga ta'siri.</p> <p>48.Jamiyat hayotida urf-odatlar, millatlararo va dinlararo munosabatlarning o'mni.</p> <p>49.Ma'naviyat va madaniyat munosabatlari.</p> <p>50.Ommaviy madaniyat - hozirgi zamон sivilizatsiyasining ijtimoiy hayotda voqe bo'lshining, faoliyat ko'rsatishining asosiy shakli.</p> <p>51.Tafakkur erkinligining inson ma'naviyatiga ta'siri.</p> <p>52.Dunyoviy va diniy ilmlar.</p> <p>53.Ommaviy madaniyat, uning inson hayoti va ma'naviyatiga ziddiyatli ta'siri.</p> <p>54.Ma'naviyatning inson va jamiyat hayotida bajaradigan vazifalari.</p> <p>55.Umumbashariy ma'naviy taraqqiyotning asosiy tarixiy bosqichlari.</p> <p>56.Jahon xalqlari ma'naviyatining uzluksiz rivojlanish</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompitensiylar).</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <p>ma'naviyat va din nisbati, umuminsoniy ma'naviyatni shakllantirishda dinning rolini ilmiy tadqiq etish metodologiyasi, dinning reguliyativ, integrativ, kompensatorlik, tarbiyaviy funksiyalarining ma'naviy jihatlari, diniy dunyoqarashning ma'naviy qirralari, millat tarbiyasida diniy omilning o'mni to'g'risida haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;</p> <p>diniy psixologiya, ilohiyot hamda marosimchilikning ma'naviyatga ta'siri, diniy tashkilotlar faoliyatining ma'naviy funksiyalari, diniy arboblar ma'naviy qiyofasiga qo'yildigan talablarni tahlil eta olishi ko'nikmalariga ega bo'lishi;</p> <p>O'zbekistonda davlat va din munosabatlari, vijdon erkinligini, “Dunyoviylik – dahriylik emas” prinsipi hamda dinlararo bag'rikenglik tamoyilini hayotga qo'llay olish malakasiga ega bo'lish kerak.</p>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va hikoya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b>  Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliq nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha topshiriqlarni bajarish</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006 yil.</li> <li>2. Mannonov A. Din falsafasi. –T.: "Toshkent islom universiteti", 2011.</li> <li>3. Jumaniyozov X.S., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2020.</li> </ol> <p><b>Qo‘srimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 yil.</li> <li>5. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” (Yangi tahrirda) gi Qonuni. –T.: “Adolat”, 2021.</li> <li>6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 16 aprel.</li> <li>7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4436 Qarori, 2019 yil 4 sentyabr.</li> <li>8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.</li> <li>9. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.</li> <li>10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2021. – 464 b.</li> <li>11. Abu Homid G‘azzoliy “Kimyoi saodat” (Ruh haqiqati). – T.: Adolat, 2005.</li> <li>12. Islom ma’rifati va hozirgi zamон / ma’sul muharrir A.Abdullaev. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016.</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari:</b></p> <p><a href="http://www.edu.uz">http://www.edu.uz</a> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb sayti.</p> <p><a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a> – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portalı.</p> <p><a href="http://www.cspi.uz">www.cspi.uz</a> – Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti</p> <p><a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a> - (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)</p> <p><a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portalı.</p>